QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI







# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

## 2022- YIL
## YANVAR-IYUN

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 2546,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,6 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

**7,9** — Yirik qurilish tashkilotlari

**22,1** — Norasmiy sektor

**70,0** — Kichik korxona va mikrofirmalar

# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-iyun oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2546,0 | 201,0 | 1781,0 | 564,0 |
| Nukus sh. | 790,1 | 19,4 | 706,3 | 64,4 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 151,3 | 0,4 | 88,3 | 62,6 |
| Beruniy | 157,9 | 7,3 | 60,0 | 90,6 |
| Bo'zotov | 41,6 | 0,2 | 36,7 | 4,7 |
| Qorao'zak | 66,3 | 6,4 | 49,7 | 10,2 |
| Kegeyli | 52,1 | 4,2 | 34,9 | 13,0 |
| Qo'ng'irot | 194,0 | 89,0 | 86,8 | 18,2 |
| Qonliko'l | 40,3 | 0,1 | 23,6 | 16,6 |
| Mo'ynoq | 79,7 | 2,6 | 65,3 | 11,8 |
| Nukus | 133,0 | 0,1 | 85,6 | 47,3 |
| Taxiatosh | 152,9 | 11,3 | 125,4 | 16,2 |
| Taxtako'pir | 59,0 | 7,6 | 44,8 | 6,6 |
| To'rtko'l | 289,9 | 46,5 | 160,4 | 83,0 |
| Xo'jayli | 92,6 | 0,4 | 63,6 | 28,6 |
| Chimboy | 63,4 | 0,2 | 22,2 | 41,0 |
| Shomanay | 24,0 | 0,2 | 15,0 | 8,8 |
| Ellikqal'a | 157,9 | 5,1 | 112,4 | 40,4 |

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 201,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 70,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,8 % punktga kamayib, 7,9 % ni tashkil etdi.

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qo‘ng‘irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 45,9 % i yoki 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 69,5 %), To‘rtko‘l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 16,0 % i)va Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 8,1 % i yoki 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 69,9 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,0 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,5 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,9 % ni tashkil etgan holda 1781,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.



**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**70,0**
2022- yil yanvar-iyun

**69,5**
2021- yil yanvar-iyun



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (706,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 89,4 %), To‘rtko‘l tumani (160,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 55,4 %), Taxiatosh tumani (125,4 mlrd. so‘m yoki 82,0 %)ga to‘g‘ri keldi.*

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 18,8 % ni tashkil etdi yoki 564,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 129,5 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **78,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2467,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,1%** va **96,9 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-iyun oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **64,5** % i yoki 1641,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**9,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **148,1** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **974,8** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **59,4 %** ni tashkil etdi.

**59,4 %**

**31,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **518,4** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2546,0 | 105,6 | 100,0 |
| Nukus sh. | 790,1 | 108,8 | 31,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| Amudaryo | 151,3 | 109,5 | 6,0 |
| Beruniy | 157,9 | 119,8 | 6,2 |
| Bo‘zotov | 41,6 | 101,5 | 1,7 |
| Qorao‘zak | 66,3 | 77,4 | 2,6 |
| Kegeyli | 52,1 | 105,8 | 2,0 |
| Qo‘ng‘irot | 194,0 | 89,8 | 7,6 |
| Qonliko‘l | 40,3 | 101,9 | 1,6 |
| Mo‘ynoq | 79,7 | 85,4 | 3,1 |
| Nukus | 133,0 | 109,1 | 5,2 |
| Taxiatosh | 152,9 | 100,4 | 6,0 |
| Taxtako‘pir | 59,0 | 108,1 | 2,3 |
| To‘rtko‘l | 289,9 | 114,8 | 11,4 |
| Xo‘jayli | 92,6 | 102,2 | 3,6 |
| Chimboy | 63,4 | 128,4 | 2,5 |
| Shomanay | 24,0 | 124,3 | 1,0 |
| Ellikqal’a | 157,9 | 104,8 | 6,2 |

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**61,2 %**
Bino va inshootlarni qurish

**30,0 %**
Fuqarolik obyektlarini qurish

**8,8 %**
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2021- yil yanvar-iyun

**100,0 %**

**56,0 %**
Bino va inshootlarni qurish

**31,4 %**
Fuqarolik obyektlarini qurish

**12,6 %**
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2022- yil yanvar-iyun

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

| | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 6,6 | 3,3 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 62,7 | 57,2 |
| Norasmiy sektor | 30,7 | 39,5 |



Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,5 % punktga kamayib, 57,2% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,8 % punktga ko‘payib, 39,5 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 13,5 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,5 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 17,0 % punktga kamaydi va 14,7 % ni tashkil etdi. Qolgan, 85,3 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 17,0 % punktga ko‘paydi.



# Korxonalar turlari bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi**
**bo‘limi**
**Aloqa telefoni: *(61) 224-92-14***
***(61) 222-75-91***

